

BADIIY MATN TIPLARI VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matn tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy xususiyatlari hamda mazmuniga ko'ra farqlanadigan asosiy tiplari tahlil qilingan. Maqolada hikoya, tasviriy, izoh, didaktik, xabar, buyruq va hissiy ifoda mazmunli matnlarning o'ziga xos belgilariga, ularning o'quvchi tafakkuri va nutqini rivojlantirishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, har bir matn turining o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv, estetik did va ma'naviy fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, badiiy matn turlarini o'qitish jarayonida ularni lingvistik, psixologik va pedagogik jihatdan kompleks tahlil etish samaradorlikni oshiradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, matn tiplari, hikoya matni, tasviriy matn, izoh matni, didaktik matn, xabar matni, buyruq matni, hissiy ifoda, tahlil, nutq rivoji, ijodiy tafakkur, o'quvchi kompetensiyasi.

TYPES OF LITERARY TEXTS AND THEIR ANALYSIS

Annotation. This article analyzes the essence of the concept of a literary text, its structural features, and the main types that differ according to content. Special attention is given to the distinctive characteristics of narrative, descriptive, explanatory, didactic, informative, imperative, and emotional types of texts, as well as to their significance in developing students' thinking and speech abilities. Moreover, the article highlights the role of each text type in shaping students' creative thinking, analytical approach, aesthetic taste, and moral values. According to the research findings, the integrated linguistic, psychological, and pedagogical analysis of literary text types in the teaching process increases its effectiveness.

Keywords: literary text, text types, narrative text, descriptive text, explanatory text, didactic text, informative text, imperative text, emotional expression, analysis, speech development, creative thinking, student competence.

ТИПЫ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность понятия художественного текста, его структурные особенности, а также основные типы текстов, различающиеся по содержанию. Особое внимание уделено характеристике повествовательных, описательных, пояснительных, дидактических, информационных, повелительных и эмоционально-выразительных текстов, а также их роли в развитии мышления и речи учащихся. Кроме того, раскрыта роль каждого типа текста в формировании у учащихся творческого мышления, аналитического подхода, эстетического вкуса и нравственных качеств. Согласно результатам исследования, комплексный лингвистический, психологический и педагогический анализ типов художественных текстов в процессе обучения повышает его эффективность.

Ключевые слова: художественный текст, типы текста, повествовательный текст, описательный текст, пояснительный текст, дидактический текст,

информационный текст, повелительный текст, эмоциональное выражение, анализ, развитие речи, творческое мышление, компетентность учащихся.

Kirish. Ta'lim muassasasida o'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol va komil shaxs etib tarbiyalash jarayoni nafaqat dars mashg'ulotlarida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham tizimli ravishda amalga oshiriladi. Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda o'tkaziladigan tadbirlarda o'quvchilar sahna chiqishlari, she'r o'qish, maqol va hikmatli so'zlarni yod olish orqali ma'naviy va estetik qadriyatlarni o'zlashtiradilar. O'qish savodxonligi va tarbiya darslarida esa ular darslikdagi matnlarni o'qib, tahlil qilish orqali hayotiy tajriba va saboqlarni egallaydilar.

1–4-sinflarda o'tkaziladigan o'qish savodxonligi darslari umumiy pedagogika hamda adabiyot fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois bu darslarning asosiy vazifasi faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshirishdan iborat. O'qish savodxonligi darslarida o'qitiladigan hikoya, ertak, doston, rivoyat va boshqa janrdagi matnlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularda Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Xalqimiz azaldan ilm-fanni jaholat zulmatini yorituvchi nur manbai sifatida e'zozlab, uning rivojiga katta ahamiyat bergan. Birinchi Uyg'onish davrida yashab ijod etgan Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy kabi buyuk allomalar, shuningdek, ikkinchi Uyg'onish davrining yirik siymolari – Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Zahiriddin Muhammad Bobur ilm-fan sohasidagi izlanishlari orqali jahon ilmiga beqiyos hissa qo'shganlar.

XX asr boshlarida faoliyat yuritgan Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fayzulla Xo'jayev, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Abduqodir Shukuriy kabi jadid ma'rifatparvarlari ham xalqni o'qishga, ilm-ma'rifatga da'vat etganlar.

Xalqimiz esa tarix davomida qanday og'ir sinov va zulmlar bo'lmasin, ilm va ma'rifatni ulug'lab kelgan. Ular farzandlarining savodli, bilimli bo'lishini orzu qilib, ularni maktabga yuborganlar. O'sha davr maktabdor domlalar esa o'z uslublariga tayanib, bolalarga ta'lim va tarbiya berishga astoydil harakat qilganlar.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da “matn” (arabcha “nutqning yozuvdagi ifodasi”) tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: “yozma yoki bosma shaklda ifodalangan mualliflik asari yoki hujjat” [11,382,557].

Rus va ingliz tillarida bu atama “tekst” (lotincha “textum” — “bog'lanish”, “birikish”, “aloqa”) shaklida qo'llanilib, mazmunan “bog'liq ifodalar majmui”[10.606-b] ma'nosini bildiradi.

Tadqiqotchi L. Loseva o'zining “Matn qanday tuziladi?” [5, 4-5] nomli asarida “matn”ni lingvistik tadqiqotning eng murakkab obyektlaridan biri sifatida ta'riflab, uning quyidagi asosiy belgilarini ajratib ko'rsatadi:

axborotning yozma shaklda ifodalanishi;

mazmuniy tugallikka egaligi;

o'quvchida voqelikka nisbatan muayyan munosabat uyg'otish imkoniyatiga ega bo'lishi.

Darhaqiqat, matn nutqning og'zaki va yozma shakllarida mavjud bo'ladi. Ammo ayniqsa yozma matnni yaratishda adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya etish, shuningdek, tahririy jihatdan aniqlik va mantiqiy izchillikni ta'minlash zarur.

Matn tushunchasi, asosan, nutqning yozma shaklini ifodalaydi. Agar so'z badiiy asarlar haqida borayotgan bo'lsa, u holda matn personajlarning yozma nutqini aks ettiradi. Matn adabiy tilning grammatik, leksik va uslubiy me'yorlariga tayangan holda yaratiladi.

Matnni sintaktik nuqtai nazardan qaraganda, u mazmun jihatidan o'zaro bog'langan va leksik-grammatik vositalar orqali birlashtirilgan gaplar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ham “matn” deganda murakkab sintaktik butunlik, ya'ni bir-biri bilan ma'no va tuzilish jihatidan bog'langan erkin gaplar tizimi tushuniladi. Matnning sintaktik tahlili esa gaplar orasidagi munosabatlarni aniqlash, ularni yirikroq sintaktik birliklar – murakkab sintaktik butunliklarga ajratish jarayonini o'z ichiga oladi. Matnning leksik-grammatik tomoni uning tarkibiy va

120 mazmuniy asosini tashkil etadi. Har qanday matnning negizida grammatik mazmun yotadi, aynan shu mazmun matnning yaxlitligi va mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Matn – mazmunan va shaklan bir-biriga bog'langan gaplar tizimidan iborat bo'lgan murakkab sintaktik butunlikdir. Matnning sintaktik tahlili gaplar orasidagi munosabatlarni aniqlash va ularni yirik sintaktik birliklarga ajratishni o'z ichiga oladi. Matnning leksik-grammatik jihati uning mazmuniy va tarkibiy asosini tashkil etadi, chunki grammatik mazmun matnning yaxlitligi va izchilligini ta'minlaydi.

Shunday ekan, "adabiy tahlilning bosh masalasi matn ustida ishlash orqali o'tkaziladigan tahlildir. O'quvchi mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida uning poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tagzaminidagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi" [6, 300-b].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, matnni, xususan badiiy matnni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Hikoya mazmunli matn – voqea va hodisalarni izchil bayon etishga asoslangan matn turi.

Tasviriy matn – shaxs, joy yoki hodisaning tasvirini ifodalovchi matn.

Izoh mazmunli matn – biror tushuncha yoki fikrni sharhlash, tahlil qilishga yo'naltirilgan matn.

Didaktik matn – o'quvchiga ma'naviy, axloqiy yoki ilmiy saboq berish maqsadida yozilgan matn.

Xabar mazmunli matn – ma'lumot, voqea yoki yangilikni yetkazishga qaratilgan matn.

Buyruq mazmunli matn – ko'rsatma, topshiriq yoki talabni ifodalovchi matn turi.

Hissiy ifoda mazmunli matn – muallif yoki qahramonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ularini ifodalovchi matn.

Muhokama va natija. Hikoya mazmunli matn – voqea va hodisalarni izchil tarzda bayon etuvchi, vaqt va makon jihatidan bog'langan mazmunga ega matn turidir. Bunday matnda muayyan voqea, qahramonlarning harakati yoki hayotiy holatlar ketma-ketlikda tasvirlanadi.

Asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

voqealar rivojining mantiqiy ketma-ketligi;

vaqt va joyning aniqligi;

qahramonlarning ishtiroki;

muayyan g'oya yoki hayotiy saboqning mavjudligi.

Hikoya mazmunli matnning maqsadi – o'quvchiga voqelikni obrazli tarzda yetkazish, unda hayotiy tafakkur, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdir. Misol: Bir kuni Bahrom maktabga ertaroq keldi. U sinf oynalarini artdi, partalarni tartibga keltirdi. Dars boshlanganda o'qituvchi uni maqtadi. Bahrom bundan xursand bo'lib, kelgusida ham sinfiga yordam berishni niyat qildi. Bu matnda voqealar ketma-ketlikda bayon etilganligi sababli u hikoya mazmunli matn hisoblanadi.

Tasviriy matn – biror shaxs, joy, narsa yoki hodisaning tashqi ko'rinishi, belgisi, holati va xususiyatlarini batafsil tasvirlab beruvchi matn turidir. Bunday matnning asosiy maqsadi – o'quvchiga tasvirlanayotgan narsa yoki manzara haqida aniq, jonli, tasavvur uyg'otuvchi obraz yaratishdir. Asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

predmet yoki manzaraning belgilarini, rangini, shaklini, tovushini, harakatini ifodalash;

so'zlarning obrazlilik, sifat va ravishlarning ko'p qo'llanishi;

voqea rivoji emas, balki tasvirning o'zi markazda turadi;

o'quvchida hissiy taassurot uyg'otish maqsadi.

Tasviriy matnning maqsadi – o'quvchi tasavvurida tasvirlanayotgan narsa yoki manzaraning jonli obrazini yaratish, estetik didini va kuzatuvchanligini rivojlantirishdir. Misol: Bahor keldi. Daryo suvlari shovullab oqmoqda. Daraxtlar yangi kurtak yozgan, bog'larda qushlar chug'urlyadi. Havo tiniq, quyosh nuri yer yuzini iliq bag'riga olgan. Bu parcha tasviriy matn hisoblanadi, chunki unda voqea emas, balki tabiat manzarasi – bahorning go'zalligi tasvirlangan.

Izoh mazmunli matn – biror tushuncha, hodisa, soʻz yoki fikrning mazmunini sharhlash, tushuntirish, tahlil qilish yoki asoslashga qaratilgan matn turidir. Bunday matnda muallif oʻquvchiga nomaʼlum yoki murakkab boʻlgan fikrni sodda, aniq va izchil tarzda tushuntiradi.

Asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

biror tushuncha yoki fikrni ochib berish, izohlash;

sabab–natija munosabatlarini koʻrsatish;

mantiqiy izchillik va aniq ifoda;

ilmiy yoki maʼrifiy ohang ustunligi.

Izoh mazmunli matnning maqsadi – oʻquvchiga yangi bilim berish, tushunchaning mohiyatini anglatish, uni toʻgʻri talqin qilishga yordam berishdir. Misol: “Vatanparvarlik” soʻzi vatanga muhabbat, uning taraqqiyoti va farovonligi uchun fidokorona xizmat qilishni anglatadi. Vatanparvar inson yurtining ravnaqi, xalqining baxti uchun harakat qiladi. Ushbu parcha izoh mazmunli matn hisoblanadi, chunki unda “vatanparvarlik” tushunchasi izohlanib, mazmuni tushuntirilgan.

Didaktik matn – oʻquvchi yoki tinglovchiga maʼnaviy, axloqiy, ilmiy yoki hayotiy saboq berish maqsadida yozilgan matn turidir. Bunday matnlarda muallif oʻz fikrini oʻrgatish, toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish yoki ibrat koʻrsatish orqali yetkazadi. Didaktik matnlar odatda pand-nasihat, maqol, hikmat, ibratli hikoya yoki masal tarzida boʻladi. Asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

oʻquvchini oʻylashga, xulosa chiqarishga undash;

axloqiy yoki maʼnaviy gʻoyaning mavjudligi;

oʻrgatuvchan, pand-nasihat ohangi;

hayotiy tajriba asosida xulosa chiqarish imkoniyati.

Didaktik matnning maqsadi – oʻquvchiga yaxshi fazilatlarni singdirish, toʻgʻri xulq-atvor, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga oʻrgatishdir. Misol: Bir kun bola onasiga yordam berish oʻrniga oʻyin oʻynadi. Kechqurun onasi charchaganini koʻrgan bola oʻzini aybdor his qildi. Ertasi kuni u onasiga yordam berib, mehr va mehnatning qadrini tushundi. Bu parcha didaktik matn hisoblanadi, chunki unda mehnatsevarlik va mehr-oqibat haqida ibratli saboq beriladi.

Xabar mazmunli matn – biror voqea, hodisa yoki yangilik haqida maʼlumot beruvchi, oʻquvchiga aniq axborot yetkazishga qaratilgan matn turidir. Bunday matnda asosan maʼlumotning toʻgʻriligi, aniqligi va izchilligi muhim hisoblanadi. U koʻproq kim?, qachon?, qayerda?, nima boʻldi?, nega?, qanday? kabi savollarga javob beradi.

Xabar mazmunli matnda voqea va hodisalar haqida aniq maʼlumot berilishi, bayonning izchil, mantiqan bogʻlangan boʻlishi, emotsional (hissiy) ifodalardan koʻra, faktik maʼlumot ustuvorligi, koʻpincha xolis, betaraf ohangda yozilishi singari asosiy belgilari mavjud. Xabar mazmunli matnning maqsadi oʻquvchiga yoki tinglovchiga muayyan voqea-hodisani toʻgʻri va qisqa shaklda yetkazish, axborot berish yoki maʼlumot almashishdir. Misol: Bugun ertalab maktabda “Alifbe bayrami” boʻlib oʻtdi. Tadbirda 1-sinf oʻquvchilari sheʼr oʻqidilar, qoʻshiqlar kuyladilar. Ularning chiqishlarini ota-onalar va ustozlar qizgʻin olqishladilar.

Ushbu parcha xabar mazmunli matn hisoblanadi, chunki unda aniq voqea – “Alifbe bayrami” tadbiri haqida maʼlumot berilgan. Xabar mazmunli matnning asosiy vazifasi – oʻquvchiga voqelikni aniq va xolis ifoda etishdir. U oʻquvchilarni izchil, mantiqan toʻgʻri fikrlashga, maʼlumotni toʻgʻri yetkazish va qayta ifodalash koʻnikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Buyruq mazmunli matn – biror shaxs yoki guruhga nisbatan topshiriq, koʻrsatma, iltimos yoki talabni ifodalovchi matn turidir. Bunday matnlarda buyruq, maslahat, ogohlantirish yoki yoʻnaltirish mazmuni yetakchi oʻrinni egallaydi. Ular oʻquvchini maʼlum bir harakatni bajarishga undaydi. Buyruq mazmunli matnda buyruq, iltimos yoki maslahat ohangi ustun, feʼllarning buyruq mayli (bor, qil, yoz, tingla, eshit va hokazo) shakllari ishlatiladi, maqsad – tinglovchini yoki oʻquvchini harakatga undash, baʼzan nasihat yoki ogohlantirish ohangi singari belgilari mavjud.

Buyruq mazmunli matnning maqsadi oʻquvchi yoki tinglovchini toʻgʻri yoʻlga yoʻnaltirish, unga topshiriq yoki koʻrsatma berish, ijobiy harakatga daʼvat etishdan iborat. Misol: Har doim

halol bo'li! Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsat! Mehnatdan qochma, sabr bilan ishlasang, natijasi albatta bo'ladi. Bu parcha buyruq mazmunli matn hisoblanadi, chunki unda o'quvchiga bevosita ko'rsatma va nasihatlar berilgan.

Buyruq mazmunli matnlar odatda pand-nasihat, axloqiy ta'limot, maqol, doston yoki she'riy asarlarda keng uchraydi. Ular o'quvchini axloqan to'g'ri yo'lga boshlaydi, ijobiy fazilatlarni singdiradi hamda faol, mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi.

Mazkur matn tiplari o'quvchilarga turli nutqiy, tafakkuriy va ma'naviy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida har bir matn turining o'quvchilar uchun ahamiyati izohlanadi:

Hikoya mazmunli matn o'rganan o'quvchilarda voqea-hodisalarning izchilligini anglash, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish, hikoya tuzish malakasini rivojlantiradi. Ularning ijodiy fikrlash, voqeani og'zaki va yozma shaklda ifodalash qobiliyati ortadi.

Tasviriy matn o'quvchilar atrof-muhitni, insonni, buyum va hodisalarni tasvirlashni, ularning belgilarini aniqlashni o'rganadilar. Badiiy matnni bu tipi kuzatuvchanlik, estetik did va ifodali nutq rivojlanadi.

Izoh mazmunli matn ham o'quvchilar tushuncha va hodisalarni tahlil qilish, ularni mantiqan izohlash va asoslab berish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. O'quvchilar analitik fikrlash, mantiqiy izchillik va fikrni dalillar bilan asoslash malakasi shakllanadi.

Didaktik matn esa o'quvchilarga axloqiy, ma'naviy va hayotiy saboqlar beradi. Bu o'z navbatida to'g'ri xulq, insoniy qadriyatlar, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi sifatlar shakllanadi. Badiiy matnning xabar mazmunli matn tipi o'quvchilar fakt va ma'lumotni aniq, lo'nda va tushunarli yetkazishni o'rganadilar. Bolalarda axborot berish madaniyati, obyektivlik va aniqlik rivojlanadi. Badiiy matnning buyruq mazmunli matnida o'quvchilar ko'rsatma, topshiriq yoki nasihatni anglash va unga amal qilishni o'rganadilar. Bu badiiy matn tipi mas'uliyat, intizom va irodaviylik sifatleri mustahkamlanadi.

Badiiy matn tipi sanalmish hissiy ifoda mazmunli matn o'quvchilarda his-tuyg'ularni ifoda etish, emotsional so'z boyligini to'g'ri qo'llash malakasi shakllanadi. Natida o'quvchida ruhiy sezgirlik, empatiya, badiiy did va nutq madaniyati rivojlanadi.

Umuman olganda matn turlarini o'rganish o'quvchilarda til va nutq madaniyati, ijodiy va mantiqiy fikrlash, ma'naviy kamolot va estetik sezgini rivojlantiradi. Shuningdek, ular orqali o'quvchilar turli janr va uslublarda yozishni o'rganadilar, bu esa ularning savodxonligi va nutqiy kompetensiyasini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn turlari – hikoya, tasviriy, izoh, didaktik, xabar, buyruq va hissiy ifoda mazmunli matnlar – o'quvchilarning nutq rivoji va ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Har bir matn tipi o'z mazmuni va shakliga ko'ra o'quvchilarda turli kompetensiyalarni rivojlantiradi: hikoya matni voqealarni izchil bayon qilishni, tasviriy matn badiiy ifoda vositalaridan foydalanishni, izoh matni tahliliy fikrlashni, didaktik matn axloqiy qadriyatlarni, xabar matni mantiqiy tuzilmani, buyruq matni esa intizom va mas'uliyatni shakllantiradi. Hissiy ifoda mazmunli matn esa o'quvchilarda estetik did, his-tuyg'ularni anglash va ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shunday qilib, badiiy matn turlarini o'qitish jarayoni o'quvchilarning fikrlash madaniyati, nutqiy faolligi va ijodiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 23.09.2020
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariya soslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – TDPU. 2004. -258 b.
3. Asqarova Manzura Avazbekovna "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish". p.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini oli unun yozilgan dissertatsiyasi. 13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Namangan. -2020. 185-b.

4. Akmuradov B. U O'zbek tilidagi matnlar uchun nutqni sintez qilish usullari va algoritmlari texnika fan. falsafa doktori (PhD) dis. – T.: 2022.
5. Лосева Л.М. Как строится текст /Пособие для учителей. Пере изд. -М.: Просвещение, 2000. – С. 4-5.
6. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Ped. fan. dokt. ...dis. - T.: TDPU, 1998-300 b
7. Madaminova M. S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o'rni filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. - Andijon. 2022. 136-b
8. Oybek Ortiqov, and Murodova Maqsuda. "Talabalar axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari" Interpretation and researches 2.18 (2024): 33-40.
9. Olimov, Shirinboy, Oybek Artikov, and Maksuda Murodova. "The use of national values in forming the ecological world view of students." BIO Web of Conferences. Vol. 141. EDP Sciences, 2024.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati // 5 jildli. To'rtinchi jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E. Begmatov va boshq. - T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 - 606 b
11. O'zbek tilining izohli lug'ati // 5 jildli. Ikkinchi jild. A. Madvaliev tahriri ostida. Tahrir hay'ati: E. Begmatov va boshq. - T.: "O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 -382-557-b
12. Qahhorova, Abera. "Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish masalasi". Problems and solutions of scientific and innovative research 1.2 (2024): 47-50.